

**ANGREN “SUVOQOVA” TOZALASH INSHOOTI
QURILMALARIDA TOPILGAN SUVO‘TLARINING
O‘XSHASHLIK KOEFFITSIYENTI**

*O‘zbekiston Milliy Universiteti, Samarqand Davlat Veterinariya,
Meditsinasi, Chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining
Toshkent filiali*

Turdaliyeva Xurmatoy;

Soatov G‘iyossiddin Turdiyevich

Annotatsiya: Oqova suvni tozalash inshootiga kirib kelgan oqova suvning ifloslanganlik darajasi nihoyat darajada katta bo‘lganligidan suvo‘tlarning turlari va ularning o‘shish darajasi ham kam. Oqova suv inshoot qurilmalari orqali o‘tib borishi natijasida ifloslanganligi biologik ravishda tozalanib borishi (bu o‘rinda biz taqdiqotimiz davomida foydalangan suv o‘simliklarini o‘stirish ta’sirini ta’kidlash kerak) natijasida turlar soni va ularning miqdori ham ortib bordi.

Kalit so‘zi: Suvo‘tlar, koefitsiyent, tur ,Cyanophyta, Chrysophyta, Bacillariophyta, Euglenophyta , Chlorophyta.

Abstrakt: Due to the extremely high level of pollution in wastewater entering the treatment plant, algae species and their growth rate are also low. Both the facilities and was biologically treated (taking into account the impact of growing aquatic plants, which we used in our study).

Keyword: Algae, coefficient, type, Cyanophyta, Chrysophyta, Bacillariophyta, Euglenophyta, Chlorophyta.

Annotatsiya: Iz-za chrezvychayno vysokogo urovnya zagryazneniya stochnyx vod, postupayuyux na ochistnye soorujeniya, vidy vodorosley i skrrostx ix rosta takje nizkie. Kak kolichestva, tak i chislennostx vidov uvelichivalisx po mere togo, kak stochnye vod prohodili cherez soorujeniya i podvergalisx biologicheskoy ochistke (uchityvaya vliyaniye vyrastivaniya vodnyx rasteniy, kotorye my ispolzovali v nashem issledovalii).

Klyuchevoye slovo: Vodorosli, koeffitsient, tip, Cyanophyta, Chrysophyta, Bacillariophyta, Euglenophyta, Chlorophyta.

Kirish: Tuproq va suvning organik moddalar bilan ifloslanishi oqibatida tabiiy biota mikroorganizmlarining ayrim guruhlari o'rtasidagi munosabat buziladi va natijada moddalar almashinuvining yo'nalishi o'zgaradi, tabiiy tozalanish jarayonlari buziladi. Ifloslangan ekotizimda foydali mikroflora kamayadi, zararli va patogen mikroorganizmlar ko'payadi. Azot va fosfor birikmalari bilan ifloslanadigan suv havzalarini tozalaydi. Ekologik muvozanatning texnogen va antropogen buzilishi muhitning sanitar holatini jiddiy o'zgartiradi, insonlarning yashash sharoitlari yomonlashadi. Aholining zich joylashganligi va sanoatning jadal rivojlanishi oqibatidasharoitlar keskinlashgan bugungi davrda suvlarni biologik tozalash texnologiyalarini joriy etish ekologik vaziyat va inson yashash muhitining yaxshilanishiga imkon yaratadi.

Tabiatni muhofaza qilishning ustuvor sohalaridan biri--suv havzalarini muhofaza qilishdir. Suv resurslarini muhofaza qilishning muhim yo'nalishlari—tejamkor yangi texnologiyalarni joriy qilish, turli oqova suvlarni tozalashning ekologik xavfsiz, iqtisodiy arzon va samarali usullarini yaratishdir.

Ilmiy adabiyotlarda suvo'tlarning noqulay omillarga moslashuvi haqida ham talaygina ma'lumotlar mavjud.

Angren "Suvoqova" tozalash qurilmalarida topilgan suvo'tlarini O'zbekiston Respublikasi (Ohangaron, Olmaliq va Buxoro viloyat tozalash inshooti) va Qozog'iston Respublikasi (Chimkent shahar tozalash inshooti) da topilgan suvo'tlari bilan qiyosiy tahlil qilindi.

Angren "Suvoqova" tozalash inshooti qurilmalarida topilgan 190 ta tur, tur xillari va formalarini Ohangaron shahar tozalash inshootida topilgan 197 ta tur, tur xillari va formalarini bilan o'xshash turlarni qiyosiy tahlil qilish natijasida, ulardagi o'xshash turlar soni 57 ta ekanligi aniqlandi va o'xshashlik koeffitsienti (Kj) 0,2269 ga teng bo'ldi. Angren "Suvoqova" tozalash inshooti qurilmalarida topilgan 190 ta tur, tur xillari va formalarini Olmaliq shahar tozalash inshootida topilgan 102 ta tur, tur xillari va formalarini bilan ular o'rtasidagi

o'xshash turlarni qiyosiy tahlil qilishimiz natijasida, ulardagi o'xshash turlar soni 57 tani tashkil etganligi aniqlandi va o'xshashlik koeffitsienti (Kj) 0,288 ga teng bo'ldi. Olingan natijalar quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Angren "Suvoqova" tozalash inshootida va Ohangaron shahar tozalash inshooti biologik hovuzlarda uchragan suvo'tlarining o'xshashlik koeffitsientlari

Suvo'tlar bo'limlari	Angren "Suvoqova" tozalash inshootidagi suvo'tlar soni	Ohangaron shahar tozalash inshootidagi suvo'tlar soni	O'xshash turlar soni	O'xshashlik koeffitsienti (Kj)
Cyanophyta	35	32	20	0,4255
Chrysophyta	2	1	1	0,5
Bacillariophyta	56	12	10	0,1724
Euglenophyta	17	6	4	0,2105
Chlorophyta	80	47	22	0,2095
Jami:	190	119	57	0,2269

2-jadval

Angren "Suvoqova" tozalash inshootida va Olmaliq shahar tozalash inshooti biologik hovuzlarda uchragan suvo'tlarining o'xshashlik koeffitsientlari

Suvo'tlar bo'limlari	Angren "Suvoqova" tozalash inshootidagi suvo'tlar soni	Olmaliq shahar tozalash inshootidagi suvo'tlar soni	O'xshash turlar soni	O'xshashlik koeffitsienti (Kj)
Cyanophyta	35	38	18	0,32
Chrysophyta	2	1	1	0,5

Bacillariophyta	56	14	11	0,18
Euglenophyta	17	5	4	0,22
Chlorophyta	80	44	23	0,522
Jami:	190	102	57	0,288

Angren “Suvoqova” tozalash inshooti qurilmarida topilgan 190 ta tur, tur xillari va formalarni Buxoro viloyati ip yigiruv korxonalarida tozalash inshooti biohovuzlarida uchragan suvo‘tlarining o‘xshashlik koeffitsientlari (Mustafaeva.2004)189 ta tur, tur xillari va formalari bilan ular o‘rtasidagi o‘xshash turlarni qiyosiy tahlil qilishimiz natijasida, ulardagi o‘xshash turlar soni 49 tani tashkil etganligi aniqlandi va o‘xshashlik koeffitsienti (Kj) 0,258 ga teng bo‘ldi. Olingan natijalar quyidagi 3- jadvalda keltirilgan.

3-jadval

Angren “Suvoqova” tozalash inshooti va Buxoro viloyati ip yigiruv korxonalarida tozalash inshooti biohovuzlarida uchragan suvo‘tlarining o‘xshashlik koeffitsientlari

Suvo‘tlar-bo‘limlari	Angren “Suvoqova” tozalash inshootidagi suvo‘tlar soni	Buxoro viloyati ip yigiruv korxonalarida biohovuzlaridagi suvo‘tlar soni	O‘xshash turlar soni	O‘xshashlik koeffitsienti (Kj)
Cyanophyta	35	64	15	0,17
Chrysophyta	2	1	1	0,5
Dinophyta	-	3	-	-
Bacillariophyta	56	81	26	0,23
Euglenophyta	17	6	-	-
Chlorophyta	80	34	7	0,06
Jami:	190	189	49	0,14

Angren “Suvoqova” tozalash inshooti qurilmalarida topilgan 190 ta tur,tur xillari va formalarni Chimkent shahar tozalash inshootida (Tajiev , 1984) topilgan 212 ta tur,tur xillari va formalari bilan ular o‘rtasidagi o‘xshash turlarni qiyosiy tahlil qilishimiz natijasida,ulardagi o‘xshash turlar soni 67 tani tashkil etganligi aniqlandi va o‘xshashlik koeffitsienti (Kj) 0,258 ga teng bo‘ldi.Olingan natijalar quyidagi 4- jadvalda keltirilgan.

4-jadval

Angren “Suvoqova” tozalash inshootida va Chimkent shahar tozalash inshooti biologik hovuzlarida uchragan suvo‘tlarining o‘xshashlik koeffitsientlari.

Suvo‘tlar bo‘limlari	Angren “Suvoqova” tozalash inshootidagi suvo‘tlar soni	Chimkent shahar tozalash inshooti biologik hovuzlaridagi suvo‘tlari soni	o‘xshash turlar soni	o‘xshashlik koeffitsienti(Kj)
Cyanophyta	35	63	17	0,2
Chrysophyta	2	1	1	0.5
Bacillariophyta	56	50	18	0,2
Xantophyta	-	1	-	-
Pyrrophyta	-	1	-	-
Euglenophyta	17	11	5	0,21
Chlorophyta	80	85	26	0,18
Jami:	190	212	67	0,258

Xulosa.

Olingan natijalarga ko‘ra shu narsa aniqlandiki, taqqoslanayotgan tozalash inshootlari qancha bir biriga yaqin joylashgan bo‘lsa,ulardagi suvo‘tlarining umumiy turlari bir-biriga ancha yaqinligi , ya’ni o‘xshash turlar ancha ko‘pligi

bilan (Olmaliq ,Ohangaron), qancha uzoq bo‘lsa,umumiy turlar soni kamligi (Buxoro ,Chimkent) bilan farq qilishi aniqlandi.

Adabiyotlar

1. Taubaev T., Buriev S. Biologicheskaya ochistka stochnyx vod.Fan, 1980. 151 s.
2. Karimova B.K. Альгофлора водоёмов Юга Кыргызстана. Bishkek. Texnologiya, 2002. 214 s.
- 3.Raimbekov K.T., Shoyakubv R.Sh. Некоторые особенности биологии тsveteniya i vegetativnoe razmnojenie Eichornia crassipes Solms. V usloviyax introduktsii. // DAN RUz. 1978. 3.76-76 s.
4. Sladeczek V. System of water quality from the biological point of view // Arch. Hydrobiol. Ergoeb. 1973. Bd. 7. S. 210-218.
5. Ibragimova Z. Yu., Yuldasheva Sh.B., Turdaliyeva X.S. // Seasonal changes of “water draining” cleaning construction of high water-plants. Horizon:Journal of Humanity and Artificial Intelligence. Vol. 2 No. 6 (2023): P. 728-733.